Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

"Umumiy fizika va qurilish muhandisligi" kafedrasi tashabbusi bilan

Fizika va Qurilish muhandisligi yo'nalishi talabalari o'rtasida

Besh muhim tashabbus doirasida o'tkazilgan tadbir

# BAYONNOMASI

12.03.2025 yil Denov tumani

Qatnashdilar: Kafedraning barcha professor-o'qituvchilari va talabalari

## KUN TARTIBI

1. Besh muhim tashabbusining 3-yo'nalishi bo'yicha davra suhbati o'tkazish.

2. Tanlovda Fizika va Qurilish muhandisligi yo'nalishi talabalari o'rtasida "Kiberxavfsizlik tahdidlari" mavzusida tushuntirish ishlari olib borish.

## ESHITILDI:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ilgari surgan besh muhim tashabbusining 3-yo'nalishi bo'yicha "Umumiy fizika va qurilish muhandisligi" kafedrasi professor-o'qituvchilari tomonidan Fizika va Qurilish muhandisligi yo'nalishi talabalari o'rtasida yoshlarni kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni ta'minlash masalasi yuzasidan davra suhbati o'tkazildi.

Bunda kafedraning professor-o'qituvchilari so'zga chiqib talabalarga tushuntirish ishlari olib borildi. Unga ko'ra hozirgi kunda kiberxavfsizlik sohasida yuzaga kelayotgan tahdidlar soni va shakli tobora murakkablashib bormoqda. Bugungi kunda eng ko'p uchrayotgan va real tahdid solayotgan asosiy kiberxavflar mavjud. Ular soxta xabarlar orqali firibgarlik, ma'lumotlarni shifrlab, pul talab qilish, tarmoqqa noqonuniy kirish, deepfake va sun'iy intellekt yordamida aldov, mobil qurilmalarga tahdidlar, ijtimoiy tarmoqlardagi firibgarliklar, kichik tashkilotlar va ta'lim muassasalariga hujumlardan iborat. Bunday vaziyatlarga duch kelgan vaqtda hushyor bo'lishimiz kerak va quyidagi xavfsizlik choralarini

qo‘llashimiz kerak: kuchli parollar qo‘llash va ularni doimiy yangilab boorish; antivirus va xavfsizlik dasturlaridan foydalanish; tizimlarni va dasturlarni muntazam yangilab borish; ehtiyotkorlik bilan e-mail va havolalarni tekshirish; zaxira nusxalarini (backup) saqlash.

Davra suhbat davomida talabalarni kompyuter qarshisiga o‘tirg‘izdilar va ularni kompyuter va internet platformalaridan qay darajada foydalanishini kuzatdilar. Kompyuter va internet platformalaridan foydalanayotganda yo‘l qo‘yayaotgan kamchiliklari bo‘yicha tegishli tavsiyalar berib o‘tildi.






QAROR QILINDI:

1. Besh muhim tashabbusining 3-yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkazilgan tadbir ijobiy o‘tkazildi, deb hisoblansin.

Kafedra mudiri: E.Yusupov

Kotiba: Sh.Zamonova